

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

2026
mart

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Iloxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT week Uzbekistan 2025: Milliy texnologiyalar haftaligining yakunlari va ularning O'zbekiston IT-ekotizimiga ta'siri.....	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI VAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSIYALARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKIOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	



MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Safarmurodova Marjona To'raqulovna

Termiz davlat universiteti

1-kurs magistranti

marjonasafarmurodova@gmail.com

ORCID: 0009-0006-5822-9440

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Surxondaryo viloyati mahalliy budjetlarining daromad bazasini kengaytirish orqali xarajatlar barqarorligini ta'minlash masalasini tahlil qiladi. Tadqiqotda mahalliy budjetlarning respublika budjetiga bog'liqligi, daromad manbalarining cheklanganligi hamda norasmiy iqtisodiyotning ta'siri o'rganilgan. Nazariy yondashuvlar va amaliy ma'lumotlar tahlili asosida Surxondaryo viloyati misolida budjet taqchilligi va transfertlarga yuqori darajadagi bog'liqlik holati yoritilgan. Tadqiqot natijalari mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, daromad bazasini diversifikatsiya qilish va xarajatlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, daromad bazasi, xarajatlar barqarorligi, fiskal desentralizatsiya, Surxondaryo viloyati, budjet transfertlari, soliq bazasi.

Abstract. This study analyzes the issue of ensuring expenditure stability by expanding the revenue base of local budgets in Surkhandarya Region. The research examines the dependence of local budgets on the republican budget, the limited nature of revenue sources, and the impact of the informal economy. Based on a synthesis of theoretical approaches and empirical data, the study highlights the issue of budget deficits and the high dependence on transfers using the example of Surkhandarya Region. The findings provide practical recommendations for increasing the financial independence of local budgets, diversifying their revenue base, and ensuring expenditure stability.

Keywords: local budget, revenue base, expenditure stability, fiscal decentralization, Surkhandarya Region, budget transfers, tax base.

Аннотация. Данное исследование посвящено анализу проблемы обеспечения стабильности расходов путем расширения доходной базы местных бюджетов Сурхандарьинская область. В исследовании рассматриваются зависимость местных бюджетов от республиканского бюджета, ограниченность источников доходов и влияние неформальной экономики. На основе теоретических подходов и практических данных на примере Сурхандарьинская область показаны дефицит бюджета и высокая зависимость от трансфертов. Результаты исследования содержат практические рекомендации по повышению финансовой независимости местных бюджетов, диверсификации доходной базы и обеспечению стабильности расходов.

Ключевые слова: местный бюджет, доходная база, стабильность расходов, фискальная децентрализация, Сурхандарьинская область, бюджетные трансферты, налоговая база.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar sharoitida mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi rolini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish orqali xarajatlar



barqarorligini ta'minlash masalasi ayniqsa dolzarb bo'lib, bu hududlarning o'zini o'zi moliyalashtirish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq ko'plab hududlarda, jumladan Surxondaryo viloyatida ham mahalliy budjetlar respublika budjetidan ajratiladigan transfertlarga yuqori darajada bog'liq bo'lib qolmoqda.

Mahalliy budjetlarning daromad bazasi va xarajatlar barqarorligining nazariy-metodologik asoslari fiskal desentralizatsiya, jamoat moliyasi va hududiy iqtisodiyot nazariyalari bilan chambarchas bog'liq. Richard Musgrave jamoat moliyasining uchta asosiy funksiyasini — taqsimlash, barqarorlashtirish va resurslarni samarali joylashtirish funksiyalarini belgilab bergan bo'lsa, Wallace Oates fiskal federalizm nazariyasini rivojlantirib, mahalliy hokimiyat organlarining o'z xarajatlarini moliyalashtirishdagi mustaqilligi samaradorlikni oshirishini ta'kidlagan. Uning fikricha, mahalliy darajada qaror qabul qilish aholining ehtiyojlariga mos jamoat xizmatlarini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida mahalliy budjetlarning daromad bazasi va xarajatlar barqarorligi masalasi qator ilmiy tadqiqotlar va normativ-huquqiy hujjatlarda tahlil qilingan. Xususan, Surxondaryo viloyati mahalliy budjet daromadlarining tuzilishi va shakllanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda viloyat budjeti asosan soliq tushumlari va davlat subsidiyalariga tayangani, biroq soliq bazasining cheklanganligi, norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi va subsidiya mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjudligi qayd etilgan.

Ushbu tadqiqotda mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish va xarajatlar barqarorligini ta'minlash masalasini kompleks o'rganish uchun tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, induktiv va deduktiv yondashuvlar qo'llanildi. Tizimli tahlil mahalliy budjet tizimini daromadlar, xarajatlar va transfertlar kabi o'zaro bog'liq elementlar majmui sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil esa Surxondaryo viloyati budjet ko'rsatkichlarini respublika miqyosidagi umumiy tendensiyalar bilan taqqoslash orqali hududning o'ziga xos jihatlarni aniqlashga yordam berdi.

Surxondaryo viloyati mahalliy budjetlarning daromad bazasi va xarajatlar barqarorligini ta'minlash holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, viloyat budjeti sezilarli darajada respublika budjetidan ajratiladigan transfertlarga bog'liqdir. Surxondaryo viloyati Xalq deputatlari Kengashining 2026-yilgi mahalliy budjetni tasdiqlash to'g'risidagi qaroriga ko'ra, viloyat budjetining daromadlari 3 922,2 milliard so'm, xarajatlari esa 6 087,7 milliard so'm miqdorida prognoz qilingan. Bu esa 2 165,5 milliard so'mlik budjet tafovutini anglatadi va ushbu tafovut respublika budjetidan ajratiladigan budjetlararo transfertlar hisobiga qoplanishi rejalashtirilgan. Jumladan, 279,1 milliard so'm aksiz solig'i tushumlari hisobidan shakllanishi nazarda tutilgan. Ushbu ma'lumotlar viloyat mahalliy budjetining o'z daromadlari hisobidan xarajatlarni qoplash imkoniyati cheklanganligini va xarajatlar barqarorligi transfertlarning hajmi hamda muntazamligiga bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Mavjud tahlillar Surxondaryo viloyati mahalliy budjetiga respublika budjetidan ajratiladigan transfertlarning ulushi 15 foizni tashkil etishini ko'rsatadi. Shuningdek, viloyat budjet daromadlarining shakllanishida soliq bazasining torligi, norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi va davlat subsidiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati kabi omillar muhim o'rin tutmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyati mahalliy budjetlarning xarajatlar barqarorligini ta'minlash uchun daromad bazasini kengaytirish strategik ahamiyatga ega. Mavjud nazariy yondashuvlar va amaliy siyosat hujjatlariga asoslanib, quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiqdir:

- Soliq bazasini kengaytirish. Yangi korxonalarini tashkil etish, qishloq xo'jaligi va turizm sohalarini rivojlantirish orqali qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish zarur. Shu bilan birga, hududiy salohiyatdan kelib chiqib, qo'shimcha budjet tushumlarini jalb etish imkoniyatlarini aniqlash muhimdir.

- Soliq turlarini qayta taqsimlash. Qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va yoqilg'i uchun aksiz solig'i viloyat hamda shahar-tuman budjetlari o'rtasida taqsimlanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari, shuningdek, ijaradan olinadigan daromadlarning to'liq mahalliy budjetlarga yo'naltirilishi mahalliy daromadlarni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu amaliyotni yanada kengaytirish va boshqa mahalliy ahamiyatga ega soliqlarni ham hududiy budjetlar ixtiyorida qoldirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot Surxondaryo viloyati mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish asosida xarajatlar barqarorligini ta'minlash masalasini atroflicha tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, viloyat mahalliy budjeti sezilarli darajada respublika budjetidan ajratiladigan transfertlarga bog'liq bo'lib, 2026-yil uchun prognoz qilingan budjetda 2 165,5 milliard so'mlik taqchillik mavjud. Mazkur holat viloyatda soliq bazasining cheklanganligi, norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi va davlat subsidiyalaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish zarurati bilan izohlanadi. Respublika miqyosidagi ma'lumotlar ham mahalliy budjetlarning transfertlarga umumiy bog'liqligi yuqori ekanini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish hududning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish va xarajatlar barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Ayniqsa, yangi



korxonalarni tashkil etish, qishloq xo'jaligi va turizm salohiyatidan samarali foydalanish, xizmatlar sektorini kengaytirish hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish mumkin. Bu esa viloyat budjetining transfertlarga bog'liqligini kamaytirish va hududning o'z daromadlari ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mahalliy darajada mavjud soliqlarni qayta taqsimlash va mahalliy budjetlarga ko'proq daromad manbalarini birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlaridan tushadigan mablag'larni to'liq mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldirish, shuningdek, mahalliy ahamiyatga ega boshqa yig'im va to'lovlarni hududiy budjetlarga yo'naltirish daromad bazasini mustahkamlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish ham muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik faoliyatini legallashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar asosida nazorat tizimini rivojlantirish hamda biznes yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish orqali qo'shimcha budjet tushumlarini shakllantirish mumkin.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyati mahalliy budjetlarining daromad bazasini kengaytirish va xarajatlar barqarorligini ta'minlash hududning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy faollikni oshirish va aholi farovonligini yaxshilashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wallace E. Oates. *Fiscal Federalism*. New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972.
2. Richard M. Bird, & Robert D. Ebel (tahrirchilar). *Fiscal Decentralization and Intergovernmental Relations in Developing Countries*. Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
3. Richard M. Bird. "Regional Taxation: Lessons from International Experience". *FinanzArchiv: Public Finance Analysis*, vol. 64, no. 2, 2008, 269–291-betlar.
4. Jorge Martinez-Vazquez, & Robert M. McNab. "Fiscal Decentralization, Fiscal Crises and Fiscal Sustainability". *International Tax and Public Finance*, vol. 17, no. 2, 2010, 129–152-betlar.
5. Richard M. Bird. "Local Government Taxing Powers: The Challenge of the Twenty-First Century". *Environment and Planning C: Government and Policy*, vol. 20, no. 6, 2002, 881–893-betlar.
6. A. Tukhtamurodov, Y. Sobirov, S. Toshaliyeva, D. Ibrayimova, & M. Feruz. "Determinants of CO2 Emissions in the BRICS: A Dynamic Panel ARDL Approach". *BIO Web of Conferences*, vol. 82, 2024, 06002-bet.
7. S. Abdunazarova. "Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashirishda tahlil qilish". *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2024.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100